

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.Ped.72.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

SIDIQOVA DILORA SHAVKATOVNA

**MASOFAVIY TA'LIM SHAROITIDA TALABALARNING KASBIY
KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI**
(boshlang'ich ta'lim yo'nalishi misolida)

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang'ich ta'lim)

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Buxoro – 2023

**Pedagogika fanlari bo'yicha fan doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора науки (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of science (PhD) on pedagogical
sciences**

Sidiqova Dilora Shavkatovna

Masofaviy ta'lim sharoitida talabalarning kasbiy kompetentligini takomillashtirish metodikasi (boshlang'ich ta'lim yo'nalishi misolida) 3

Сидикова Дилора Шавкатовна

Методика повышения профессиональной компетентности студентов в условиях дистанционного образования (на примере направления начального образования) 21

Sidikova Dilora Shavkatovna

Methods of improving the professional competence of students in the conditions of distance education (the example of the direction of primary education)..... 41

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 45

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.Ped.72.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

SIDIQOVA DILORA SHAVKATOVNA

**MASOFAVIY TA'LIM SHAROITIDA TALABALARNING KASBIY
KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI
(boshlang'ich ta'lim yo'nalishi misolida)**

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang'ich ta'lim)

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.1.PhD/Ped371 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (pezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.buxdu.uz) va “ZiyoNET” Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Kasimov Fayzullo Muhamadovich,**
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar: **Hamroyev Alijon Ro‘ziqulovich**
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Bozorova Muslima Qodirovna
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot: **Urganch davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro dalat universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.Ped.72.04 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil “14 “oktabr soat14.00”dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 200117, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11–uy. Tel.: (0 365) 221–29–14; faks: (0 365) 221–57–27; e–mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro dalat universitetining Axbopot-resurs markazida tanishish mumkin (374 raqam bilan ro‘yxatga olingan) (Manzil: 200117, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11–uy. Tel.: (0 365) 221–25–87.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil “6 “oktabr”da tarqatildi.
(2023-yil “4 “oktabr”da 15 – raqamli reestr bayonnomasi).



S.Q. Qahhorov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, p.f.d, professor

G'.G'. Qurbonov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, p.f.f.d (PhD)

H.O. Jo'rayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, p.f.d (DSc),
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahonda masofaviy ta'lim tizimini shakllantirish, sifatli kadrlar tayyorlash uchun o'qish jarayonida zamonaviy axborot kommunikatsiya tizimlariga asoslangan masofaviy o'qitishdan foydalanish imkoniyatlari tobora taraqqiy etib bormoqda. Tajribalar shuni ko'rsatmoqdaki, o'quv jarayonida axborot kommunikatsiyalar yangi bilimlarni egallash, saqlash, uzatish hamda amaliy qarorlar qabul qilish vositasiga aylantirish hisobiga kadrlarning sifat darajasini tubdan yaxshilashning imkoniyatlari tobora kengayib bormoqda. Hozirgi vaqtda AQSh, Angliya, Germaniya, Fransiya, Rossiya, Kanada, Ispaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya kabi rivojlangan davlatlardagi ta'lim tizimida yuqori kasbiy kompetentlikka ega bo'lgan raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda internet va axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga, o'qitish jarayonida zamonaviy kompyuter dasturlarini qo'llash, ularni amaliyotga keng joriy qilish uchun e'tibor qaratilmoqda.

Dunyoda ta'lim integratsiyasi va uning modellari, turlari oliy o'quv yurtlarida kredit-modul texnologiyalari bo'yicha o'qitishning joriy etilishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish dunyoning ilg'or davlatlari tajribasi va Yevropa mamlakatlarida taniqli olimlarning oliy ta'lim sohasidagi tadqiqotlari bilan tanishish, Boloniya deklaratsiyasi va Lissabon konvensiyasini puxta o'rganishni talab qilmoqda. Ta'lim oluvchilarning axborot xavfsizligini rivojlantirishning psixologik-pedagogik omillarni aniqlashtirish, bo'lajak o'qituvchilarda axborot bilan ishlash, kommunikativ kompetentlikni shakllantirishning metodikasini takomillashtirishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ayniqsa, masofaviy ta'lim sharoitida talabalarda kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyalarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, talabalarni zararli axborotlar xurujidan muhofaza qilishning innovatsion modellarini ishlab chiqish, bo'lajak pedagoglarning kompetentligini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda oliy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar, ta'lim sifati va samaradorligini oshirish maqsadida faoliyatni takomillashtirishga yo'naltirilgan davlat dasturlari, hukumat qarorlari, ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilariga qaratilayotgan e'tibor, ular uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar, ta'lim sifatini oshirishdagi mavjud muammolarning yechimini topish, oliy ta'lim tizimini takomillashtirish bilan bir qatorda, uning sifatini ilmiy asosda boshqarishni ham taqozo etmoqda. "XXI asr – intellektual taraqqiyot asri" sifatida e'tirof etilgan davrda oliy ta'limda masofaviy ta'lim talabalarning kasbiy kompetentligini takomillashtirish metodikasini samarali tashkil etish harakatlanuvchi kuch sifatida moddiy mahsulotlar emas, balki axborotlarni ishlab chiqish va ulardan foydalanish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Axborotlashgan jamiyat nafaqat ishlab chiqarish, balki butun turmush tarzi va hattoki, qadriyatlar tizimini ham o'zgartirib yubormoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-fevraldagi “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-5349-son, 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-5847-son, 2020-yil 6-oktabrdagi “Axborot texnologiyalari sohasida ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4851-son, 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta‘lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-6108-son, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 824-son qarori va O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi hamda boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Respublikamiz olimlari tomonidan axborot ta‘lim muhitida masofaviy ta‘lim sharoitida talabalarning kasbiy kompetentligini takomillashtirish metodikasi, o‘quv jarayoniga axborot texnologiyalarini qo‘llash samaradorligini oshirish muammolariga oid ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan va ilmiy maqolalar chop etilgan. Jumladan, A.A. Abduqodirov, M.M. Aripov, T.R. Azlarov, B. Begalov, U.Sh. Begimqulov, F.M. Zokirova, R.R. Boqiyev, N.I. Tayloqov, S.S. G‘ulomov, U.Y. Yuldashev, A. Sattorov, M.A. Aripov, I. Isoqov, A.M. Po‘lotov, M.A. Fayziyev, A.G‘. Hayitov, K.Z. Abidov, Sh.I. Razzaqovlarning ilmiy tadqiqot ishlarida o‘z izohini topgan.

Mamlakatimiz pedagog olimlaridan T.T. Shoymardanov, N. Sayidahmedov, P.T. Magzumov, O.X. To‘raqulov, A.R. Xodjaboyev, R. Mavlonova, U.N. Nishonaliyev, E.T. Choriyev, N.A. Muslimov, O.A. Qo‘ysinovlar talabalarning kasbiy kompetentligini takomillashtirishning tashkiliy va metodik asoslari borasida ilmiy tadqiqot olib borgan.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stlik mamlakatlarida Y.O. Dyatlova, X.G. Manyaxova, T.A. Boronenko, S.A. Beshenkov, A.V. Goryacheva, V.A. Kaymin, E.B. Navikova, M.P. Lapchik, A.S. Lesnevskiy, N.V. Makarova, G.K. Selevko, A.G. Geyn, V.A. Krasilnikova, I.G. Semakin, V.V. Davidov, Y.S. Kuznetsova, N.A. Aleksandrova, L.V. Nikolayevalar zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish metodikasini rivojlantirish va takomillashtirishning nazariy-metodik asoslariga doir izlanishlar olib borgan.

Xorijiy davlatlar olimlaridan O. Lapina, K. Gopal, O. Khatsrinova, S. Torres Martin, S. Coman, L. Zenina, Br. Osanova, S. Shaw, C. Cavanaugh, Valverde-

Berrocoso kabilar tomonidan ta'limda elektron axborot resurslari, masofaviy ta'limning ahamiyati va o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borishgan.

Soha olimlari tomonidan tadqiq etilayotgan muammoning pedagogik va metodik jihatlari yuzasidan turli tadqiqotlar olib borilgan bo'lsada, masofaviy ta'lim sharoitida talabalarning kasbiy kompetentligini takomillashtirish metodikasi masalasi yetarlicha tadqiq etilmagan.

Dissertasiya tadqiqotining dissertasiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Boshlang'ich ta'limga raqamli texnologiyalarni tatbiq qilish metodikasini takomillashtirish (2020-2023-y.y.)" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi masofaviy ta'lim sharoitida boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetentligini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

masofaviy ta'lim sharoitida boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetentligini takomillashtirish holatini aniqlashtirish;

boshlang'ich ta'lim yo'nalishida mutaxassislik fanlarini o'qitishni tashkil etish va metodik ta'minotini takomillashtirish;

masofaviy ta'lim sharoitida boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish modelini takomillashtirish;

mutaxassislik fanlarini o'qitishda masofaviy texnologiyalarni takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti sifatida masofaviy ta'lim sharoitida boshlang'ich ta'lim yo'nalishida talabalarining kasbiy kompetentligini takomillashtirishda mutaxassislik fanlarini o'qitish jarayoni tanlab olinib, tajriba-sinov ishlari uchun Buxoro davlat universiteti, Qarshi davlat universiteti va Navoiy davlat pedagogika institutidan 319 nafar talabalar ishtirok etgan.

Tadqiqot predmeti: masofaviy ta'lim sharoitida boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetentligini takomillashtirishning mazmuni, shakli, metodi va vositalari.

Tadqiqotning usullari. Pedagogik-psixologik va ilmiy adabiyotlarni tadqiqot muammosi nuqtayi nazaridan o'rganish va tanqidiy tahlil qilish; mutaxassislik fanlari bo'yicha ilmiy-metodik manbalar tahlili; oliy ta'lim o'quv-tarbiya faoliyatini kuzatish, anketa-so'rovnomalar o'tkazish, pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va o'tkazish hamda olingan natijalarni matematik-statistik ishlov berish metodlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

masofaviy ta'lim sharoitida talabalarining kasbiy kompetentligini takomillashtirishda mutaxassislik fanlarni mazmunan optimallashtirish va innovatsion o'qitish metodlari, shakllari, vositalari, axborot-ta'lim muhitining komponentlari formal va noformal ta'lim vaziyatlarda ijodiylikka qaratilgan bo'lajak yetuk pedagog kadrlarning barqarorligini ta'minlash trayektoriyasiga qaratilgan metodik muhit aniqlashtirilgan;

talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning masofaviy ta'lim sharoitida ijodiy faollik, bazaviy, pedagogik va raqamli kompetensiyalarni axborot almashish kommunikativligi, ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgan shaxsiy fazilatlar hamda kasbiy bilimlarni transformatsiyalash orqali sinergetik va faoliyatli yondashuvlardan foydalanishga oid metodik ta'minoti takomillashtirilgan;

mutaxassislik fanlarining amaliy mashg'ulotlarini o'qitish jarayoni talabalarining kasbiy tayyorgarlik ko'nikmalarini masofaviy ta'lim sharoitida raqamli texnologiyalardan foydalanib uyg'unlashtirish, shaxsiy va kasbiy fazilatlarini ta'lim olishga oid motivatsiyasining dinamikasiga adekvat hamda sinxron moslashtirish asosida takomillashtirilgan;

LMS Moodle, H5P masofaviy texnologiyalar orqali talabalarining kasbiy kompetentligini va innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorgarlik mezonlari (interfaol, faol, reaktiv va passiv) darajalarni (diagnostik, formativ va summativ) baholash hamda kasbiy bilimga, semantik ijodiy faoliyatga, mustaqil faoliyatga va amaliy jarayonlarga yo'naltirilgan mutaxassislik fanlarni o'qitishda natijaviy ko'rsatkichlarning identiv mosligini takomillashtirishga oid tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalari uchun mutaxassislik fanidan interfaol ko'p modulli elektron o'quv kursi o'quv-tarbiya jarayoniga tatbiq etilgan;

mutaxassislik fanlarining integratsiyalashgan axborot-metodik ta'minoti boyitilgan va uning tarkibi zamonaviy elektron ta'lim resurslari innovatsion yondashuvlar mazmuni aniqlashtirilgan;

mutaxassislik fanlarini masofaviy ta'lim sharoitida talabalarining kasbiy kompetentligini takomillashtirishning shakl, vosita va usullarini qo'llashda yangicha yondashuv asosida masofaviy texnologiyalar bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoga falsafiy, metodologik, metodik, psixologik va pedagogik yondashilganligi hamda respublika va chet el olimlari, pedagogik faoliyatni tashkil etishga doir tajribalarga asoslanganligi, tadqiqot vazifalariga mos keluvchi, bir-birini to'ldirib boruvchi tadqiqot metodlarining qo'llanilganligi, tahlil va tadqiqot tavsifining miqdor va sifat jihatidan ta'minlanganligi, tajriba-sinov ishlarining reprezentativligi hamda olingan natijalarning matematik-statistik tahlil metodlari yordamida qayta ishlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati masofaviy ta'lim sharoitida talabalarining kasbiy kompetentligini takomillashtirish muammolari, boshlang'ich ta'lim yo'nalishida masofaviy ta'lim sharoitida talabalarining kasbiy kompetentligini takomillashtirish holatini tahlilga tortilganligi, boshlang'ich ta'lim yo'nalishida mutaxassislik fanlarini o'qitishni tashkil etishning mohiyati, mazmuni, strukturasi, metodik ta'minotiga doir takliflar ishlab chiqilganligi, masofaviy ta'lim sharoitida talabalarining kasbiy kompetentligini takomillashtirishning tashkiliy-metodik ta'minoti modeli va uni

amalda samarali qo'llash malakasini egallash masalalari yoritilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati tadqiqotda ilgari surilgan g'oyalar va amaliy tavsiyalardan mutaxassislik fanlarini o'qitishda masofaviy texnologiyalardan foydalanish, ta'lim tizimida darslik va qo'llanmalar yaratishda, malaka oshirish kurslarida ma'ruzalar o'qishda, shuningdek, boshlang'ich sinf o'qituvchilari dars jarayonida foydalanishlariga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Boshlang'ich ta'lim yo'nalishida masofaviy ta'lim sharoitida talabalarning kasbiy kompetentligini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

masofaviy ta'lim sharoitida talabalarning kasbiy kompetentligini takomillashtirishda mutaxassislik fanlarni mazmunan optimallashtirish va innovatsion o'qitish metodlari, shakllari, vositalari, axborot-ta'lim muhitining komponentlari formal va noformal ta'lim vaziyatlarda ijodiylikka qaratilgan bo'lajak yetuk pedagog kadrlarning barqarorligini ta'minlash trayektoriyasiga qaratilgan metodik muhit aniqlashtirishga doir xulosalardan O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti Qoraqalpog'iston filialining A1-XT-09-92997-raqamli "Yoshlarni umuminsoniy, milliy va tarixiy qadriyatlar uyg'unligi asosida ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning muammolari" mavzusidagi grant loyihasining "Talabalarni integratsiyalashgan axborot-metodik ta'minot asosida o'qitish metodikasi" qismini bajarishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti Qoraqalpog'iston filialining 2023-yil 14-iyuldagi 411-son ma'lumotnomasi). Natijada, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining innovatsion kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorgarligini rivojlantirishga erishilgan.

talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning masofaviy ta'lim sharoitida ijodiy faollik, bazaviy, pedagogik va raqamli kompetensiyalarni axborot almashish kommunikativligi, ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgan shaxsiy fazilatlar hamda kasbiy bilimlarni transformatsiyalash orqali sinergetik va faoliyatli yondashuvlardan foydalanishga oid metodik ta'minoti takomillashtirishga oid nazariy g'oyalardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining "Assalom Buxoro", "Najot bilimda" teleko'rsatuvlarining ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston MTRK Buxoro viloyati teleradiokompaniyasining 2023-yil 18-maydagi 02-09-130-son ma'lumotnomasi). Natijada, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining amaliy ko'nikmalari rivojlantirilgan.

LMS Moodle, H5P masofaviy texnologiyalar orqali talabalarining kasbiy kompetentligini va innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorgarlik mezonlari (interfaol, faol, reaktiv va passiv) darajalarni (diagnostik, formativ va summativ) baholash hamda kasbiy bilimga, semantik ijodiy faoliyatga, mustaqil faoliyatga va amaliy jarayonlarga yo'naltirilgan mutaxassislik fanlarni o'qitishda natijaviy ko'rsatkichlarning identiv mosligini takomillashtirishga oid tavsiyalardan

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti Qoraqalpog‘iston filialining A1-XT-09-92997-raqamli “Yoshlarni umuminsoniy, milliy va tarixiy qadriyatlar uyg‘unligi asosida ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning muammolari” mavzusidagi grant loyihasining “Talabalarni masofaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanib o‘qitish metodikasini takomillashtirish” qismini bajarishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti Qoraqalpog‘iston filialining 2023-yil 14-iyuldagi 411-son ma’lumotnomasi). Natijada, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining masofaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalari rivojlantirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 8 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarning e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi yuzasidan jami 26 ta ilmiy ishlar chop etilgan bo‘lib, jumladan, 1 ta o‘quv qo‘llanma, 2 ta elektron darslik, 1 ta monografiya O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta maqola, shundan, 5 tasi respublika hamda 5 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uch bob, 138 bet matn, rasmlar, jadvallar, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarining ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi ko‘rsatilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi tahlil etilgan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, obyekt hamda predmeti aniqlangan, tadqiqotning usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati asoslab berilgan hamda tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, e’lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishida masofaviy ta’lim sharoitida talabalarning kasbiy kompetentligini takomillashtirishning nazariy asoslari**” deb nomlangan bo‘lib, bunda talabalarni o‘qitishning hozirgi holati va uning muammolari ishlari tahlili, mutaxassislik fanlarini o‘qitishda kasbiy kompetentligini takomillashtirishning o‘rni va ahamiyati, mutaxassislik fanlaridan kasbiy-metodik ta’minotni integrativ texnologiyalar asosida ishlab chiqishning didaktik prinsiplari yoritilgan.

Ilmiy-texnika taraqqiyotining jadal sur‘atlar bilan rivojlanishi, iqtisodiyot sohalarining integratsiyasi va globallasuvi, ijtimoiy hayotning o‘zgarib borishi sharoitida bilimlarning o‘zgarib borishi kuzatilmoqda. Inson butun umri davomida o‘qishga va ma’lum kasbni egallashga bo‘lgan intilishini qoniqtirish uchun har bir insonning bilim olishga bo‘lgan huquqini ta’minlash har bir mamlakatning davlat

strategiyasiga aylandi. Shu bois, uzluksiz ta'limni amalga oshirishni ta'minlay oladigan, har bir shaxsning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitidan kelib chiqqan holda, ta'lim shakllarini kengaytirish va ularning tashkiliy tuzilmasini, o'quv –metodik ta'minotini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish muhim vazifalardan biridir.

Ma'lumki, fan va texnika jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan bugungi kunda ko'plab ilmiy bilimlar, tushuncha, tasavvurlar va axborotlar hajmi keskin ortib bormoqda. Bu bir tomondan fan va texnikaning yangi bo'limlari va sohalarining shakllanishini ta'minlayotgan bo'lsa, ikkinchidan, fanlar orasida "hukmron bo'lgan" chegaralarni buzib, integratsiya jarayonini jadallashtirishni taqozo etadi. So'nggi paytlarda ta'lim jarayoni natijalarini tobora ko'proq "kompetentlik" tushunchasi bilan bog'lab tadqiq qilinmoqda. Zamonaviy ta'lim amaliyotida kompetentlilik ta'lim qadriyati, maqsadi, natijasi kabi uchta holatda namoyon bo'lmoqda. Chunki kompetentlilik, birinchidan, ta'limning intellektual va ko'nikmali tarkibiy qismlarini o'zida birlashtiradi; ikkinchidan, kompetentlilik tushunchasi "natijadan" shakllanadigan ta'lim mazmunini talqin qilish g'oyasini o'z ichiga oladi; uchinchidan, kompetentlilik integrativ tabiatga ega. O'qituvchi uchun kasbiy faoliyat bu pedagogik faoliyatdir, bu esa ilmiy adabiyotlarda "pedagogik kompetentlik" kategoriyasi qanday ta'riflanganligini ko'rib chiqishni taqozo etadi. Kasbiy kompetentlik, pedagogning kasbiy kompetentligi bo'yicha tadqiqotlar olib borgan Germaniyalik olimlar J.Baumert, M.Kunter, W.Blum, U.Klusmann, S.Krauss va M.Neubrandlar pedagogning kasbiy kompetentligini zaruriy kasbiy bilim, ko'nikma va kasbiy etika birligi sifatida baholab, uning asosiy komponentlari sifatida ijtimoiy tahlil, pedagogik vaziyatlar diagnostikasi, refleksiya va kasbiy harakatlarni e'tirof etishgan. Ta'limni modernizatsiyalashga doir qator hujjatlarda kompetensiyaviy yondashuv ta'lim mazmuni, shu jumladan kasbiy-pedagogik ta'limni yangilanishining muhim konseptual qoidalaridan biri sifatida belgilab berilgan. "Kompetensiya" va "kompetentlilik" tushunchalari bir-biriga turlicha nisbatda biz ko'rib chiqayotgan kompetensiyaviy yondashuvning o'ziga xos ma'noga ega kategoriyalari sifatida namoyon bo'ladi.

Pedagogikadagi integratsion yondashuv pedagogik jarayonning turli jihatlarini bir butun sifatida ko'rib chiqishni o'z ichiga oladi va bu yangi sifat natijasi, yangi tizimli va yaxlit ta'limni beradi. Integratsion yondashuvning mohiyati va oliy kasbiy ta'limda integratsiyaning tarkibiy qismlari E.O.Galitskix taklif qilgan integrativ yondashuvning tuzilmasidan foydalanish imkonini berdi (1-jadvalga qarang).

1-jadval Yuqori sifatli elektron ta'lim resurslarini yaratish va ulardan o'quv jarayonida foydalanishning muhim vazifalaridan biri uning didaktika talablariga mos kelishidir. Sifatsiz (pedagogik nuqtayi nazardan) kompyuter dasturlarini yaratishning eng muhim sabablari, birinchidan, o'qitishning didaktik tamoyillariga qisman, ba'zan esa to'liq e'tibor bermaslik, ikkinchidan, o'qitishning an'anaviy shakl va usullarini mexanik ravishda kompyuterdan foydalangan holda o'qitishning yangi texnologiyalari sohasiga o'tkazishdir.

Integrativ yondashuv asosida kasbiy kompetentlikning tuzilishi


Integratsiya darajalari	Integratsiya asoslari	Integratsiya natijasi
Fanlararo integratsiya	Fan va madaniyatning turli sohalarini o‘zaro bog‘liqligi	Professional dunyoqarashning shakllanishi
Fan ichidagi integratsiya	O‘quv fani tabaqalashtirilgan va integrativ tizim sifatida	Bo‘lajak mutaxassisning muvaffaqiyatli kasbiy faoliyatga nazariy va metodik tayyorligi
Shaxslararo integratsiya	Biznes va ijodiy hamkorlik	Kasbiy faoliyatga tashkiliy va kommunikativ tayyorgarlik
Shaxsning kasbiy shakllanishi integratsiyasi	Shaxsning integrativ tabiati, kasbiy-shaxsiy rivojlanishning yaxlitligi	Kasbiy bilimlarning ongga integratsiyalashuvi

Pedagogik adabiyotlarda e‘lon qilingan bir qator didaktik prinsiplarni asos qilib, ularni kompyuter o‘qitish vositalariga moslashtirish, axborot texnologiyalarni rivojlantirishda to‘liq oqlangan qadam bo‘lib, quyidagilarni ko‘rsatishimiz mumkin:

- ilmiylik prinsipi;
- tushunarlilik prinsipi;
- ko‘rgazmaviylik prinsipi;
- individual yondashuv prinsipi;
- sistemalilik va izchillik prinsipi;
- jamoaviy va individuallik prinsipi;
- mashg‘ulot va amaliyot o‘rtasidagi bog‘liqlik prinsipi;
- yaratuvchanlik prinsipi;
- gigiyenik talablar prinsipi;
- bilimlarni takrorlash va mustahkamlash prinsipi.

Ko‘rib chiqilgan materiallar bizga an’anaviy ta’lim turining didaktik prinsiplarini yangi axborot texnologiyalari doirasida o‘quv jarayonini qo‘llab-quvvatlash vositalarini ishlab chiqishda samarali qo‘llash mumkin, degan xulosaga kelishga imkon beradi. Keng kontekstdagi bunday prinsiplar tizimi zamonaviy ta’lim paradigmasi hal qilishi uchun mo‘ljallangan vazifalarga, kompyuterning o‘ziga xos xususiyatlariga, multimedia muhitining imkoniyatlariga moslashishi kerak. Shu bilan birga, kompyuterli o‘qitish texnologiyalarida vizual va gigiyenik prinsiplari alohida ahamiyatga ega, bu esa ushbu texnologiyalarning yangi imkoniyatlari bilan bevosita bog‘liqdir. Shu bilan birga, ta’kidlash joizki, barcha pedagogik innovatsiyalar avvalgi fan va amaliyot tomonidan erishilgan yutuqlarni mutlaqo inkor etmasdan, ular to‘plangan tajribani tanqidiy qayta ko‘rib chiqish hamda o‘qitishning qayta-qayta sinovdan o‘tgan prinsiplarini yangi mazmun bilan to‘ldirishni nazarda tutadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Mutaxassislik fanlarini o‘qitishda integrativ texnologiyalar asosida kasbiy kompetentligini takomillashtirish metodikasi”** deb nomlangan bo‘lib, unda mutaxassislik fanlaridan talabalarning kasbiy kompetentligini takomillashtirishning metodik imkoniyatlari, talabalarning integratsiyalashgan axborot-metodik ta’minotdan foydalanish bosqichlari va o‘qitish jarayoni, mutaxassislik fanlarini o‘qitishda integrativ yondashuv asosida kasbiy kompetentlikni takomillashtirish texnologiyasi bayon etilgan.



1-rasm. Masofaviy ta'lim sharoitida boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning takomillashtirilgan modeli

O'tkazilgan izlanishlar asosida biz tomonimizdan ta'lim jarayonida masofaviy ta'lim sharoitida boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning takomillashtirilgan modeli ishlab chiqildi va uning har bir komponenti mazmuni ochib berildi (1-rasmga qarang).

Ushbu modelga muvofiq, boshlang'ich ta'lim yo'nalishi bakalavriat yo'nalishi malaka talablari, DTS, o'quv reja, fan dasturlari va ijtimoiy buyurtmadan kelib chiqqan holda umumkasbiy fanlarini o'qitish jarayonida o'quv-metodik ta'minoti, masofaviy o'qitish, topshiriqlar tizimi va baholash zamon talabiga mos ravishda oliy ta'lim muassasalarida o'tilishi ko'zda tutilgan modul-kredit tizimiga o'tishi inobatga olingan bo'lishi kerak. Bundan kelib chiqib, fanga oid darsliklar, o'quv qo'llanmalar, oflayn elektron darsliklar, modellar va tayyor namunalar, animatsiyalar va virtual ko'rgazmalar natijasida talabalarni motivatsiyasini oshirish, rejalashtirishga yo'naltirish va kreativlik qobiliyatlarini ko'rsatishga undash masofaviy tizimlarni yo'lga qo'yish, fanni nafaqat auditoriya yoki oliy ta'lim muassasasi chegarasida chiqarib globallashtirishga erishishga olib keladi.

Modelning tizimni tashkil etuvchi komponenti, uning "yadrosi" maqsadli komponent bo'lib, uning atrofida qolgan komponentlar qurilgan. Maqsadli komponent axborot-metodik ta'minotning yo'nalishini, uning mazmuni, texnologiyalari va natijalarini baholashni belgilaydigan strategik va taktik maqsadlarni belgilash orqali amalga oshiriladi. Maqsadli komponentda ijtimoiy buyurtma, maqsad va vazifalar kabi elementlarni ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiqdir.

Modelning ikkinchi komponenti axborot-metodik blok bo'lib, integrativ texnologiyalar asosida axborot-metodik ta'minotni takomillashtirish asosiy vazifa hisoblanadi. Biz bilamizki, zamonaviy ta'lim resurslari yildan-yilga takomillashib rivojlanib kelmoqda. Hozirgi elektron resurslar ta'lim jarayonining ajralmas qismi bo'lib kelayotgan bir vaqtda ularni an'anaviy talim resurslari bilan solishtirish mumkin emas. Mazkur blokda axborot texnologiyalari komponentlari va o'qitishning onlayn va oflayn shakllari o'z aksini topgan. Zamonaviy ta'limda ular bir-birini to'ldirib, takomillashtirib kelmoqda. Ayniqsa, talaba faoliyati davomida ushbu resurslardan unumli va o'z vaqtida foydalansagina o'z maqsadiga erishadi.

Modelning uchinchi komponenti mazmunli blokda fanni o'qitish jarayoni (mazmunli jarayon) va talabaning semestr davomida bajaradigan ishlari (shakliy jarayon) qismlariga ajratilgan. Mazmunli jarayon fanning me'yoriy hujjatlarini rasmiylashtirishdan boshlab talabani baholash va natijalarni tahlil qilishgacha bo'lgan jarayonlarni o'z ichiga oladi. Mazmunli jarayonning asosiy bosqichlari quyidagilardan iborat:

- geografiya o'qitish metodikasi, texnologiya va uni o'qitish metodikasi fanlaridan o'quv-me'yoriy hujjatlarni kredit-modul tizimi asosida ishlab chiqish;

- geografiya o'qitish metodikasi, texnologiya va uni o'qitish metodikasi fanlaridan axborot uslubiy ta'minot (AUT)ning bazaviy o'quv materiallarini integrativ texnologiyalar asosida takomillashtirish;

- fan bo'yicha elektron ta'lim resurs (ETR)lari ishlab chiqish va talabalar foydalanishini ta'minlash;

- geografiya o'qitish metodikasi, texnologiya va uni o'qitish metodikasi fanlaridan o'quv materiallarini bosmali va elektron o'qitish vositalari asosida tizimlashtirish;

- on-line rejimda videoma'ruza, forumlar va amaliy topshiriqlarni tashkil etish;

- on-line rejimda talabalar bilan maslahatlar tashkil etish;

- talabalarni baholash va natijalarni tahlil qilish.

Ikkinchi yo'nalish - o'quv, elektron ta'lim orqali talabalarni tayyorlash jarayonini metodik ta'minlash. Quyidagi tadbirlarni o'z ichiga olishi mumkin:

- o'qitish shakllari, usullari, tamoyillar va vositalarini belgilash;

- axborot ta'lim resurslarini ishlab chiqish, yangilash va ulardan masofaviy foydalanishni ta'minlash;

- individual ta'lim trayektoriyasini tayyorlashda maslahat berish;


- o'quv va ishlab chiqarish amaliyotini boshqarish;


- kurs ishi va bitiruv malakaviy ishlarni boshqarish;

- kasbiy bilimlarni o'zlashtirish va kompetensiyani rivojlantirish darajasini baholash va boshqalar.

Modelning natijaviy blokida baholash jarayoni: shakllar, mezonlar, darajalar tavsiflangan.

Masofaviy ta'lim sharoitida boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning takomillashtirilgan modelini sinovdan o'tkazish maqsadida moodle – ta'limni boshqarish tizimi joriy qilindi hamda boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalari uchun geografiya o'qitish metodikasi, texnologiya va uni o'qitish metodikasi fanlaridan elektron o'quv kursi yaratildi. Biz tomonimizdan masofaviy ta'lim uchun bt-modul.uz platformasi ishlab chiqildi (2-rasmga qarang).





2-rasm. bt-modul.uz platformasidan olingan namunalar.

Talaba ta'lim resurslarining bosma shakllaridan tez va umumli foydalanishi uchun resurslarga murojaat xaritasi o'qituvchi tomonidan puxta ishlab chiqilishi kerak. Albatta, bu jarayon elektron ta'lim resurslarida ham inobatga olishi kerak. Talaba bitta oddiy harakati bilan mavzu yoki tayanch tushuncha manbasidan foydalana olishi kerak. Shularni inobatga olgan holda, talabalar uchun sifatli, aniq va integrativ elektron o'quv kursini yaratish va undan foydalanish talab etiladi. Elektron o'quv kursini yaratishda talabaga o'quv predmetlarini to'liq onlayn o'qish imkoniyati ham berilishini inobatga olish zarur. Bu jarayon to'liq o'qituvchi nazorati va kuzatuv asosida olib borilishi kerak.

Masofaviy ta'lim sharoitida talabalarning kasbiy kompetentligini takomillashtirish – didaktik prinsiplarga asoslangan mutaxassislik fanlaridan bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirishga qaratilgan mustaqil faoliyat yuritishga yo'naltirilgan elektron ta'lim resurslari bilan boyitilgan ta'lim jarayonining shakli tushuniladi¹.

Topshiriqlar, ishlash rejimlari va zamonaviy messenjer botlari imkoniyatlaridan foylanib, biz talabalarni doimiy faolligi hamda baholanish natijasi kreditlarga erishishi asoslandi.

Oliy ta'lim jamiyat va davlat ehtiyojlariga mos ravishda ijtimoiy foydali faoliyatning barcha asosiy yo'nalishlari bo'yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlashni, shaxsning intellektual, madaniy va axloqiy rivojlanishiga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishni, ta'limni chuqurlashtirish va kengaytirishni, shuningdek, yuqori malakali kadrlar tayyorlashni ta'minlashga qaratilgan. Ushbu maqsadga muvofiq axborot-metodik ta'minot axborot jamiyatida talabalarni tayyorlash jarayoni samaradorligini oshirishga qaratilgan bo'lib, bunga bir qator vazifalarni hal qilish orqali erishiladi:

- elektron ta'lim sharoitida talabalarni tayyorlash jarayonining uzluksizligini ta'minlash;

¹ Mualliflik yondashuvi

- talabalarni tayyorlash jarayonining barcha ishtirokchilarining o‘zaro hamkorligini ta’minlash;

- tayyorgarlik jarayonida shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni amalga oshirish;

- fanning axborot-metodik ta’minotini takomillashtirish orqali ta’lim sifatini oshirishga erishish;

- talabalar uchun qiyin o‘quv va hayotiy vaziyatlar bilan bog‘liq tayyorgarlik jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklarning oldini olish va hal qilish.

Dissertatsiyaning **“Pedagogik tajriba-sinovni tashkil etish”** deb nomlangan uchinchi bobida pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va o‘tkazish metodikasi va pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalari tahlili keltirilgan.

Mutaxassislik fanlarini o‘qitishda integrativ texnologiyalar asosida axborot-metodik ta’minotni takomillashtirish samaradorligini tajribaviy tekshirish va baholash Buxoro davlat universiteti, Qarshi davlat universiteti, Navoiy davlat pedagogika instituti kabi oliy ta’lim muassasalarida amalga oshirildi.

Ta’lim muassasalarini tanlash quyidagi omillarga asoslandi. Ushbu oliy ta’lim muassasalarida mutaxassislik fanlarining axborot-metodik ta’minotini takomillashtirish jarayonini amalga oshiruvchi elektron ta’lim platformalarini yaratish va qo‘llash sohasidagi innovatsion ishlanmalar qo‘llab-quvvatlanishi; ularda moddiy-texnik baza va pedagogik shart-sharoitlar mavjudligi, o‘quv jarayonining kompyuter ta’minoti yetarli darajada ekanligi inobatga olindi.

Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishda geografiya o‘qitish metodikasi, texnologiya va uni o‘qitish metodikasi, ona tili o‘qitish metodikasi fanlari uchun yaratilgan elektron o‘quv kursi Moodle tizimiga o‘rnatildi va ekperiment uchun ajratib olingan guruhlar kursga a’zo qilindi. Elektron kurs fan tarkibidan tashqari elektron kutubxona, o‘qituvchilar ilmiy ishlari bazasi, videokonferensiya, ijtimoiy tarmoq (telegram) va boshqa qo‘shimcha elementlar integratsiya qilindi va o‘qituvchi hamda talabalarga maxsus ko‘rsatmalar berildi.


Nazorat va tajriba-sinov guruhlarining natijalari muntazam tahlil etildi va bir-biriga qiyoslanib, xulosa chiqarildi. Zarur bo‘lgan hollarda bu jarayonda bevosita ishtirok etuvchi o‘qituvchilar tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalar atroflicha muhokama etilib borildi. Buning uchun nazorat va tajriba-sinov guruhlarida tadqiqot-kuzatuv ishlarini olib bordik (2-jadvalga qarang).

2-jadval

Nazorat va tajriba guruhlarida amaliy topshiriqlar hamda testlar bo‘yicha belgilangan mezonlar asosida olingan umumiy natijalar ko‘rsatkichlari

Nazorat nomi	Talaba soni	Test va amaliy topshiriqlar bo‘yicha talabalar bilim darajalari							
		A‘lo (5 baho)		Yaxshi (4 baho)		Qoniqarli (3 baho)		Qoniqarsiz (2 baho)	
		TB	TO	TB	TO	TB	TO	TB	TO
Nazorat guruhi	155	15	20	27	30	106	100	7	5
Tajriba guruhi	164	33	40	60	70	67	53	4	1

Biz statistik natijalarni diagramma ko‘rinishida ifodaladik.



3-rasm. Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishida masofaviy ta‘lim sharoitida talabalarning kasbiy kompetentligini takomillashtirish yuzasidan nazorat va tajriba guruhlarida olingan natijalar diagrammasi

Olingan natijalarga asoslangan holda mutaxassilik fanlarining axborot-metodik ta‘minotidan foydalanib o‘qitish bo‘yicha samaradorligini aniqlash yuzasidan o‘tkazilgan tajriba-sinov natijalari to‘g‘risida tajriba va nazorat guruhlaridagi o‘rtacha o‘zlashtirishlarni Student matematik-statistik metodi yordamida tahlil qilindi (3-jadvalga qarang).

3-jadval

O‘tkazilgan tajriba-sinov ishlarining statistik natijalari

T/r	Ko‘rsatkichlar	Tajriba guruhi	Nazorat guruhi
1.	O‘zlashtirishning o‘rtacha ko‘rsatgichi (x,y)	3,8	3,3
2.	Samaradorlik ko‘rsatkichi	12 %	
3.	O‘rtacha qiymat ishonch oralig‘i a_x, a_y	$a_x \in [3,68; 3,91]$	$a_y \in [3,16; 3,43]$
4.	O‘rtacha qiymat standart xatolik (S_x, S_y)	0,75	0,85
5.	Aniqlanish ko‘rsatkichi (S_x, S_y)	1,5	2
6.	Student statistikasi (T)	5,52	
7.	Ko‘rsatkichlar xulosasi	N_1 gipoteza qabul qilinadi	

O‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari natijasi shuni ko‘rsatdiki, geografiya o‘qitish metodikasi, texnologiya va uni o‘qitish metodikasi, ona tili o‘qitish metodikasi fanlaridan yaratilgan integrativ axborot-metodik ta‘minotdan foydalanib o‘qitishda tajriba guruhlarida “qoniqarli” baho olgan talabalar soni kamaygani hisobiga “yaxshi” va “a’lo” baho olgan talabalar soni ortgan, “qoniqarli” baho olganlar soni nazorat guruhlariga nisbatan kamaygan va tajriba guruhlarida “qoniqarsiz” baho olgan talabalar yo‘q.

Xulosa qilib aytish mumkinki, o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari samaradorligi statistik tahlildan ma‘lum bo‘ldiki, barcha oliy ta‘lim muassasalarida tajriba-sinov ishlari nihoyasida, tajriba guruhidagi talabalarining bilim darajasi nazorat guruhiga nisbatan 12 % yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘ldi. Bu esa oliy ta‘lim sifatini

ta'minlashda fanlarni integrativ axborot-metodik ta'minotdan foydalanib o'qitish jarayonini tashkil etish orqali yuqori samaradorlikka erishish mumkinligini ko'rsatadi.

UMUMIY XULOSALAR

1. O'tkazilgan ilmiy tadqiqodlar tahlili natijasida boshlang'ich ta'lim yo'nalishida mutaxassislik fanlarini o'qitishda bir qator muammolar borligi o'rganilib, ularni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi.

2. Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi mutaxassislik fanlarini o'qitishda integrativ axborot-metodik ta'minotdan foydalanish imkoniyatlari ochib berildi. Axborot-metodik ta'minotni takomillashtirish jarayonida elektron o'quv kursi elementlarining interfaoligi va avtomatik baholash ko'proq e'tibor qaratildi. Bunda tadqiqotlarning sohasi kengaytiriladi va mazkur sohadagi mustaqillik ta'minlanadi.

3. Masofaviy ta'lim sharoitida boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning takomillashtirilgan modeli (maqsadli, axborot-metodik, mazmunli, natijaviy) ishlab chiqildi va ta'lim resurslari turlari, didaktik prinsiplari va o'quv jarayonidagi funksiyalaridan kelib chiqqan holda mutaxassislik fanlariga mos axborot-metodik ta'minoti takomillashtirildi.

4. Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarining integratsiyalashgan axborot-metodik ta'minotdan foydalanish bosqichlari va o'qitish jarayonini nizom asosida tashkil etilishi semestr davomida mutaxassislik fanini o'qitish uzluksizligini ta'minlashga erishildi.

5. Axborot-metodik ta'minotni LMS Moodle platformasida loyihalashda elektron kutubxona, videokonferensaloqa, ilmiy ishlar bazasi, ijtimoiy tarmoqlar va interfaol elementlar integratsiya qilindi va shu bilan elektron o'quv kursi bir tizim doirasida barcha resurslarni o'zida mujassamlashtirdi.

6. Boshlang'ich ta'lim yo'nalishida mutaxassislik fanlaridan talabalarning o'zlashtirish natijalarini obyektiv baholashda LMS Moodle ning interfaol elementlaridan (topshiriq, test va H5P elementlari) foydalangan holda baholash tizimi ishlab chiqildi. Bundan tashqari, elektron o'quv kursi tarkibida yozma va og'zaki nazorat shakllari natijalarini kiritish uchun ma'lumotlar bazasi elementidan ham unumli foydalanildi.

7. O'tkazilgan tajriba-sinov ishlari natijasi shuni ko'rsatdiki, chop etilgan o'quv-metodik majmua, yaratilgan elektron o'quv qo'llanma, integrativ elektron o'quv kursi, youtube kanal va vizual materiallar orqali talabalarning mustaqil ishlashi, bilimlarni mustaqil izlash, topish va amalda qo'llash bo'yicha ko'nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

TAVSIYALAR

1. Mutaxassislik fanlarini o'qitishda integrativ texnologiyalar asosida axborot-metodik ta'minotni LMS Moodle platformasida loyihalashda elektron kutubxona, videokonferensaloqa, ilmiy ishlar bazalarini integratsiya ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

2. Axborot-metodik ta'minotni takomillashtirish jarayonida elektron o'quv kursi elementlarining interfaolligi va avtomatik baholashni keng joriy etish.

3. Mutaxassislik fanlaridan talabalarning o'zlashtirish natijalarini obyektiv baholashda LMS Moodlening interfaol elementlaridan (topshiriq, test va H5P elementlari) foydalangan holda baholash bo'yicha integrativ kurslar tashkil etish.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ЗА № PhD.03/30.12.2019.Ped.72.04 ПО
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ БУХАРСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

СИДИКОВА ДИЛОРА ШАВКАТОВНА

**МЕТОДИКА СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ
КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ В УСЛОВИЯХ
ДИСТАНЦИОННОГО ОБУЧЕНИЯ
(на примере направления начального образования)**

13.00.02 – Теория и методика образования и воспитания (начальное образование)

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по педагогическим наукам**

Бухара – 2023

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за №В2022.1.PhD/Ped.371.

Диссертация выполнена в Бухарском государственном университете.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на веб-странице Научного совета (www.buxdu.uz), а также в информационно-образовательном портале "ZiyoNet" www.ziynet.uz.

Научный руководитель:

Касымов Файзулло Мухаматович
кандидат педагогических наук, доцент

Официальные оппоненты:

Хамроев Алижон Рузикулович
доктор педагогических наук (DSc), профессор
Базарова Муслима Кадыровна
кандидат педагогических наук, доцент

Ведущая организация:

Ургенчский государственный университет

Защита диссертации состоится "14" октябрь 2023 года в 14:00 часов на заседании Научного совета за №PhD.03/30.12.2019.Ped.72.04 при Бухарском государственном университете (Адрес: 200117, город Бухара, улица М.Икбол, дом 11. Тел.: (0 365) 221-29-14; факс: (0 365) 221-57-27; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Бухарского государственного университета (зарегистрирована за № 374). (Адрес: 200117, город Бухара, улица М.Икбол, дом 11. Тел.: (0 365) 221-25-87.

Автореферат диссертации разослан "6" октябрь 2023 года.

(протокол реестра от "4" октябрь 2023 года).



С.К. Каххаров
председатель Научного совета по
присуждению ученых степеней, д.п.н.,
профессор

Г.Г. Курбанов
ученый секретарь Научного совета по
присуждению ученых степеней, д.ф.п.н.
(PhD), доцент

Х.О. Жураев
председатель научного семинара при
Научном совете по присуждению ученых
степеней, д.п.н. (DSc), профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире все больше развиваются возможности дистанционного обучения, основанного на информационно-коммуникационные системы, в процессе обучения для формирования системы дистанционного образования, подготовки качественных кадров. Как показывает опыт, все больше расширяются возможности коренного улучшения уровня качества кадров за счет преобразования информационных коммуникаций в средство овладения, сохранения, передачи новых знаний, а также принятия практических решений в образовательном процессе. В настоящее время в образовательной системе развитых государств, как США, Англия, Германия, Франция, Россия, Канада, Испания, Япония, Южная Корея, уделяется внимание на использование интернета и информационных коммуникаций в подготовке конкурентноспособных кадров с высокой профессиональной компетентностью, применение современных компьютерных программ и широкого их практического внедрения в процессе обучения.

В мире имеет важное значение внедрение обучения по образовательной интеграции и её моделям, видам, кредитно-модульной технологии в высших образовательных учреждениях. Совершенствование системы подготовки кадров требует ознакомления с опытом ведущих мировых государств и исследованиями известных ученых Европейских стран в сфере высшего образования, тщательного изучения Болонской декларации и Лиссабонской концепции. Проводится ряд научных исследований по уточнению педагогико-психологических факторов развития информационной безопасности обучающихся, совершенствованию методики работы с информацией, формированию коммуникативной компетентности будущих учителей. Особенно, совершенствование технологий формирования профессиональной компетентности у студентов в условиях дистанционного обучения имеет важное значение. А также, особо важны разработка инновационных моделей защиты студентов от информационных вылазок, развитие компетентности будущих педагогов.

В республике наряду с широкомасштабными реформами, осуществляемыми в системе высшего образования, государственными программами, правительственными постановлениями, направленными на совершенствование деятельности в целях повышения качества и эффективности образования, оказанием внимания на участников образовательно-воспитательного процесса, созданными для них условиями, решением существующих проблем в повышении качества образования, совершенствованием системы высшего образования требуется также управление его качеством на научной основе. В период, отмеченный как “XXI век – век интеллектуального развития”, в дистанционном обучении высшего образования имеет особое значение не материальная продукция в качестве движущей силы эффективной организации методики совершенствования профессиональной компетенции студентов, а разработка

и использование информации. Информационное общество изменяет не только систему производства, но и целый образ жизни и даже систему ценностей.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит осуществлению задач, установленных в Указах и Постановлениях Президента Республики Узбекистан “О мерах по дальнейшему совершенствованию сферы технологий и коммуникаций” за №УП-5349 от 19 февраля 2018 года, “Об утверждении концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года” за №УП-5847 от 8 октября 2019 года, “О мерах по дальнейшему совершенствованию системы образования в области информационных технологий, развитию и интеграции научных исследований с it-индустрией” за №ПП-4851 от 6 октября 2020 года, “О мерах по развитию сфер образования и воспитания, и науки в новый период развития Узбекистана” за №УП -6108 от 6 ноября 2020 года, Постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан “О мерах совершенствования системы, связанной с организацией образовательного процесса в высшем учебном заведении” за №824 от 31 декабря 2020 года, а также в других соответствующих нормативно-правовых документах.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данная диссертация выполнена согласно приоритетному направлению развития науки и технологий республики I. “Социальное, правовое, экономическое, культурное, духовно-просветительское развитие информационного общества и демократического государства, развитие инновационной экономики”.

